ILMIY TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH VA YOSHLARNI ILMIY IZLANISHLARGA JALB ETISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Sherxolov Olimjon Iskandarovich
Samarqand davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, G.f.f.d (PhD)
O.O.Gadoyev, **D.Tirkashev**
“Kelajak ta’lim” OK markazi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari va yosh tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy ilmiy izlanishlarga jalb etish hamda xalqaro ilmiy axborot resurslaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy maqolalarni tayyorlash, nufuzli ilmiy jurnallarni tanlash, bibliografik ma’lumotlar bazalaridan foydalanish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, iqtibos va havolalarni to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda tadqiqot natijalarini ilmiy nashrlarda e’lon qilishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy tadqiqot, ilmiy salohiyat, ilmiy-metodik yordam, xalqaro ilmiy axborot resurslari, bibliografik bazalar, ilmiy maqola, impakt-faktor

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы организации научных исследований, развития научного потенциала преподавателей образовательных организаций и молодых исследователей, их привлечения к современным научным изысканиям, а также эффективного использования международных научно-информационных ресурсов. Кроме того, обосновывается значение подготовки научных статей, выбора авторитетных научных журналов, использования библиографических баз данных, анализа научных источников, правильного оформления цитат и ссылок, а также публикации результатов исследований в научных изданиях.

Ключевые слова: научные исследования, научный потенциал, научно-методическая поддержка, международные научно-информационные ресурсы, библиографические базы данных, научная статья, импакт-фактор.

Abstract. This article examines the organization of scientific research, the development of the scientific potential of educational organization teachers and young researchers, their involvement in modern scientific research, and the effective use of international scientific and information resources. Furthermore, the importance of preparing scientific articles, selecting authoritative scientific journals, using bibliographic databases, analyzing scientific sources, correctly forming citations and references, and publishing research results in scientific publications is substantiated.

Keywords: scientific research, scientific potential, scientific and methodological support, international scientific and information resources, bibliographic databases, scientific article, impact factor.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanishi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki ta’lim tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish va yoshlarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish bilan ham chambarchas bog‘liq. Ilm-fan va ta’lim integratsiyasining kuchayishi, xalqaro ilmiy axborot almashinuvining kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagoglardan muntazam ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishni, ilmiy manbalar bilan ishlashni va o‘z kasbiy tajribasini ilmiy asosda takomillashtirishni talab qilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri pedagog xodimlarning ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha zarur kompetensiyalarga ega bo‘lishidir. Buning uchun ular xalqaro ilmiy axborot manbalaridan foydalanish, dolzarb ilmiy muammolarni aniqlash, mavjud tadqiqot natijalarini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tanqidiy tahlil qilish, ilmiy ma’lumotlarni saralash, tadqiqot metodlarini tanlash va olingan natijalarni ilmiy maqola shaklida bayon etish ko‘nikmalarini egallashi lozim.

Asosiy qism. Tadqiqotning maqsadi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb etishning ilmiy-uslubiy asoslarini yoritish, pedagog xodimlarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo‘lsa tadqiqotning vazifalari esa ilmiy faoliyatni tashkil etishning mazmuni va ahamiyatini ochib berish; pedagoglar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish omillarini tahlil qilish; xalqaro ilmiy axborot resurslari va bibliografik bazalardan foydalanishning metodik asoslarini yoritish; ilmiy maqolalarni tayyorlash va nashrga taqdim etish jarayonining asosiy bosqichlarini ko‘rsatish va boshqalardan iboratdir.

Tadqiqot obyekti amalga oshiriladigan ilmiy-metodik faoliyat va pedagoglarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish hisoblansa, tadqiqot predmetini ilmiy izlanishlarni tashkil etish, ilmiy axborot resurslaridan foydalanish, maqolalar tayyorlash va yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb etishdan iboratdir. Ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ilmiy-metodik ishlar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Chunki zamonaviy pedagogdan faqat tayyor bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish emas, balki o‘z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik muammolarni aniqlash, yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish va natijalarni ilmiy asosda baholash ham talab etiladi.

Ilmiy faoliyatni tashkil etishning yana bir muhim jihati ilmiy hamkorlik madaniyatini rivojlantirishdir[2]. Bunday hamkorlik doirasida pedagoglar, ilmiy maslahatchilar va yosh tadqiqotchilar o‘rtasida tajriba almashinuvi yuz beradi. Natijada ilmiy muammolarni jamoaviy muhokama qilish, tadqiqot metodlarini takomillashtirish va ilmiy natijalarni amaliy ehtiyojlar bilan bog‘lash imkoniyati kengayadi.

Yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb etishda, eng avvalo, ularda ilmiy muammolarga qiziqish uyg‘otish zarur. Buning uchun yosh tadqiqotchilarga dolzarb mavzularni tanlash, ilmiy savollarni shakllantirish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, tadqiqot natijalarini muhokama etish imkoniyatlarini yaratish lozim. Ilmiy izlanish jarayonida yoshlarning mustaqil fikrlashi, yangilikka intilishi va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Bular quyidagicha bo‘ladi: metodologik tayyorgarlik, ilmiy axborot bilan ishlash, ilmiy muloqot, ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish va h.k.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotning sifati ko‘p jihatdan foydalanilgan axborot manbalarining ishonchliligi, dolzarbligi va mavzuga muvofiqligiga bog‘liq. Internet tarmog‘ida ilmiy va ilmiy-ommabop materiallarning ko‘pligi tadqiqotchidan axborotni tanlash, tekshirish va tahlil qilish bo‘yicha puxta ko‘nikmalarni talab etadi. Xalqaro ilmiy axborot resurslari ilmiy maqolalar, monografiyalar, konferensiya materiallari, tadqiqot hisobotlari va bibliografik ma’lumotlarni qidirish imkonini beradi. Ular orqali muayyan mavzu bo‘yicha ilgari bajarilgan tadqiqotlarni aniqlash, ilmiy qarashlar rivojlanishini kuzatish va yangi tadqiqot uchun nazariy asos yaratish mumkin.

Ilmiy izlanishlarda Google Scholar, Scopus, Web of Science va boshqa shu kabi platformalar muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu resurslarning vazifalari bir-biridan farq qiladi. Masalan, Google Scholar turli ilmiy manbalarni keng qamrovda qidirishga yordam beradi. Scopus va Web of Science esa ilmiy nashrlar va bibliografik ma’lumotlarni tizimli indekslash hamda ilmiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. Mazkur platformalardan samarali foydalanish uchun quyidagi bosqichlarga rioya etish maqsadga muvofiqdir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Birinchi bosqich-qidiruv mavzusini aniqlashtirish. Tadqiqotning asosiy tushunchalari, muammosi va kalit so‘zlari belgilanadi. Zarur hollarda kalit so‘zlarning o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi muqobillari tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqich-ilmiy qidiruvni amalga oshirish. Kalit so‘zlar asosida qidiruv so‘rovlari tuziladi. Mavzu bilan bevosita bog‘liq ilmiy maqolalar, sharhlar va boshqa akademik manbalar ajratib olinadi.

Uchinchi bosqich-manbalarni saralash. Manbaning muallifi, nashr sanasi, ilmiy jurnalning maqomi, tadqiqot metodlari, dalillarning ishonchliligi va mavzuga muvofiqligi baholanadi.

To‘rtinchi bosqich-ilmiy mazmunni tahlil qilish. Tanlangan manbalarda qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar, mavjud cheklovlar va hal etilmagan ilmiy muammolar aniqlanadi.

Beshinchi bosqich- bibliografik ma’lumotlarni tartibga solish. Muallif, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili, jild, son, sahifalar va DOI kabi ma’lumotlar belgilangan tartibda qayd etiladi.

Oltinchi bosqich-manbalardan ilmiy matnda foydalanish. Boshqa tadqiqotchilarning fikrlari va natijalari tegishli havolalar bilan beriladi. Manbadan foydalanish mualliflik huquqi va akademik halollik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqot natijalarini nashr etish uchun jurnal tanlash tadqiqot jarayonining muhim bosqichidir. To‘g‘ri tanlangan jurnal maqolaning tegishli ilmiy auditoriyaga yetib borishiga, tadqiqot natijalarining muhokama qilinishiga va ilmiy muloqotning rivojlanishiga yordam beradi. Jurnal tanlashda, avvalo, uning ilmiy yo‘nalishi va maqola mavzusiga mosligi aniqlanishi kerak. Keyingi bosqichda jurnalning rasmiy sayti, tahrir hay’ati, taqriz jarayoni, maqolalarni qabul qilish talablari va bibliografik indekslanish holati tekshiriladi.

Xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy jurnallarni aniqlashda Scopus va Web of Science kabi bazalardagi ma’lumotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bunda jurnalning ayni paytdagi indekslanish holatini tegishli bazaning rasmiy manbasidan tekshirish lozim. Jurnalning avvalgi yillarda indekslanganligi uning hozir ham shu maqomga ega ekanini anglatmaydi. Jurnalni tanlashda faqat impakt-faktorga tayanish ham to‘g‘ri emas. Chunki jurnalning mavzuga mosligi, taqriz sifati, tahrir jarayonining shaffofligi va maqolaning ilmiy auditoriyaga foydasi ham muhim mezonlardir.

Ilmiy maqola tadqiqot natijalarini tizimli, mantiqiy va dalillarga asoslangan holda bayon etish vositasidir. Ilmiy maqola tayyorlash jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bular:

- Mavzuni tanlash va muammoni shakllantirish.
- Tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilash.
- Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish.
- Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish.
- Natijalarni tahlil qilish.
- Maqola matnini tayyorlash.
- Annotatsiya va kalit so‘zlarni shakllantirish.
- Manbalar va havolalarni tekshirish.
- Tahrirlash va sifat nazorati.
- Nashrga taqdim etish.

Ilmiy faoliyatning ishonchliligi akademik halollik va ilmiy etika tamoyillariga rioya etish bilan belgilanadi. Halollik, birinchi navbatda, boshqa mualliflarning fikrlari va ilmiy natijalarini to‘g‘ri ko‘rsatishni talab qiladi. O‘zganing matni, g‘oyasi, ma’lumoti yoki tadqiqot natijasidan tegishli havolasiz foydalanish plagiat hisoblanadi. Shu sababli ilmiy maqola tayyorlash jarayonida har bir olingan ma’lumotning manbasi aniq qayd etilishi lozim.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ilmiy maqolalarni tayyorlashda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ham mas’uliyat bilan amalga oshirilishi kerak. Bunday vositalar matnni tahrirlash, tilni yaxshilash, qidiruv so‘rovlarini shakllantirish va ma’lumotlarni dastlabki tartibga solishda yordam berishi mumkin.

O‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarga ilmiy maslahat berish jarayonida halollik qoidalarini tushuntirish alohida ahamiyat kasb etadi[3]. Ilmiy faoliyatning dastlabki bosqichidayoq manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish, iqtiboslarni rasmiylashtirish, o‘z fikrini mustaqil bayon etish va tadqiqot natijalarini xolis taqdim qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kelgusidagi ilmiy faoliyatning sifatini oshiradi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish ta’lim tashkilotlari va ilmiy maslahatchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda yoshlarni zamonaviy ilmiy izlanishlarga jalb etishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish ta’lim tashkilotlarining ilmiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir. Mazkur faoliyatning tizimli yo‘lga qo‘yilishi pedagoglarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash, yosh tadqiqotchilarning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash va ilmiy natijalarning sifatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Juraxujayev D.D. O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishda muammoga asoslangan o‘qitishning o‘rni // Tadbirkorlik va pedagogika. Ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN: 2181-2659. [4/2023].
2. Masharipova G.K. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: magistratura barcha ta’lim yo’nalishlari uchun o’quv qo’llanma. / G.K.Masharipova. – Toshkent: Fan ziyosi, 2022. - 446 bet.
3. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyoti [Matn]: tanlangan asarlar / A.Soliyev; mas’ul muharrir: O.B.Ota-Mirzaev. – T.: Kamalak, 2013. – B. 184.
4. Sherxolov.O.I. Navoiy viloyati aholisi o‘sishi va joylanishining geografik muammolari: g.f.b.f.d… diss avtoreferat Toshkent-2023 y. 47 b.
5. OECD. Frascati Manual 2015: Guidelines for Collecting and Reporting Data on Research and Experimental Development. Paris: OECD Publishing, 2015.
6. UNESCO Recommendation on Open Science. Paris: UNESCO, 2021.
7. Scopus, Scopus Sources. Ilmiy nashrlar va ularning indekslanish holatini tekshirish uchun rasmiy manba.
8. Web of Science. Master Journal List. Ilmiy jurnallarning indekslanish holatini tekshirish uchun rasmiy manba.
9. Google Scholar. Ilmiy adabiyotlarni qidirish va bibliografik ma’lumotlarni aniqlash tizimi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.